



Qandli diabet kasalligining hozirgi kundagi holati

Muminov Ilyosbek O'rinboy o'g'li¹, Mirolimov Asadbek Odiljon o'g'li¹ Komilov Doniyor Jo'rayevich.

1. Namangan Davlat Universiteti

E-mail: muminovilyosbek800@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qandli diabetni bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki, butun dunyodagi eng ko'p tarqalgan surunkali kasallik ekanligi va kasallanishlar soni yildan yilga ortib borayotganligi hamda turli yoshdagi qandli diabet kasalligiga uchragan bemorlarni qoni tarkibidagi glukoza miqdorini kun davomida o'zgarishini o'rganish, 4-oilaviy poliklinikasidagi qandli diabet bilan kasallanish holatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Insulin, qandli diabet, biokimyoviy usul, kandidat-genlar, 1-tip, 2-tip, glukometr, giperglikemiya, endokrinologiya.

KIRISH.

Endokrinologik kasaliklar bilan kasallanishlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, qandli diabet bilan kasallanish ko'satkichi yuqori o'rinlarni egallamoqda. Akademik To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan Endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yili qandli diabetga chalinganlar soni 48 711 kishini tashkil qilgan, shundan 616 nafari bolalarni, 151 nafari o'smirlarni tashkil qiladi. 2023-yilning yarim yili davomida bemorlar soni 17 970 kishiga ortib, umumiy bemorlar soni 363 585 nafarga yetgan. Shu bilan birga 2022-yil davomida O'zbekistonda 10778 kishi qandli diabet asoratlaridan vafot etgan[4]. Shu sababli endokrinologiya sohasiga alohida e'tibor berilmoqda, 2019-2021 yillarda respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha milliy dastur doirasida diagnostika va davolashning yangi standartlari tasdiqlandi, 75 000 nafarga yaqin bemorlar 40 milliard so'mdan ziyod Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga 100% insulin bilan bepul ta'minlandi, 200 milliard so'mga yaqin mablag' evaziga 14 ta xududiy endokrinologiya muassasalarining moddiy-texnik bazalari mustahkamlanib, 3,3 million AQSh dollari miqdorida zamonaviy asbob uskunalari bilan ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.01.2022 yildagi „Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-102-son qarori qabul qilindi va 2022-2024-yillarda Respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko'rsatishni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun jami xarajatlarga 350,4 milliard so'm mablag' ajratilgan[3]. Bu esa ushbu sohaga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qandli diabet (lot. diabetes mellitus, «saxar kasalligi») – glukozaning o'zlashtirilishi buzilishi bilan bog'liq bo'lgan va insulin gormonining nisbiy yoki mutlaq yetishmovchiligi sababli yuzaga keladigan endokrin sistemasining kasalliklari guruhi hisoblanadi. Ushbu



kasallik natijasida giperglikemiya — qonda qand miqdorining turg'un oshishi kuzatiladi. Kasallik uzoq davom etishi, shu bilan birga karbon suv, yog' va moy, protein (oqsil), minerallar va suv-tuz almashinuvining buzilishi bilan xarakterlanadi. Qandli diabet endokrin kasalliklari qatoriga mansub bo'lib, insulin gormoni mutloq (to'liq) yoki qisman yetishmovchiligidan kelib chiqadi va shunga ko'ra bir necha guruhlarga bo'linadi.

Qandli diabetning 1-turi patogenezi oshqozon osti bezi orolchalari Beta-hujayralarining autoimmun zararlanishi, mutloq insulin yetishmovchiligi bilan kechadi. Asosan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslarda kuzatiladi, ayniqsa, 14 va 25 yoshgacha bo'lgan 0,25% yoshlar kasallanadi. Bu bemorlarning 54%ini bolalar tashkil qiladi.

1-turdagi qandli diabet rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar:

- virusli infeksiyalar, yuqumli kasalliklar va ularning qo'zg'atuvchilari(enteroviral, retroviral, tug'ma qizilcha, parazitlar, bakteriya va zamburug'lar),
- stress, depressiya,
- noto'g'ri ovqatlanish,
- kimyoviy moddalar: og'ir metallar, nitritlar va nitratlar,
- beta-hujayraga ta'sir etuvchi toksinlar(dorilar),
- ultrabinafsha nurlari bilan nurlanish,
- homiladorlik davrida ona organizm qizilcha bilan kasallansa, undan tug'ilgan farzand 25% hollatlarda 10 yil ichida bolada qandli diabet kasalligi rivojlanishi mumkin,
- genetik moyillik, HLADR3, DR4, DQ va boshqa gaplotiplarga bog'liq, bugungi kunda 1-turdagi qandli diabetning irsiylanish xavfini tug'dirishi mumkin bo'lgan qismlar aniqlangan(1-jadval)[1].

1-jadval. Qandli diabetning irsiy moyillikni belgilovchi kandidat-genlar

Lokus	Gen joylashishi
IDDM-1 (HLA)	6p21
IDDM-2 (VNTR)	11p15
IDDM-3	15q26
IDDM-4	11q13
IDDM-5 va IDDM-8	6q24-27
IDDM-7	2q31

Qandli diabetning 2-tipi bu metabolik kasalliklar majmuyi bo'lib, insulin rezistentligi va beta-hujayralar disfunksiyasining turli darajalariga asoslangan geterogen kasallik hisoblanadi.

Qandli diabetning 2-tipiga moyillik omillari:

- nasliy moyillik, ota-onasi va yaqin qarindoshlarda qandli diabetning mavjudligi,
- semizlik va noto'g'ri ovqatlanish,
- yosh omili, 35-40 yoshdan oshgan shaxslarda ko'proq kuzatilishi,
- ayollarda anamnezida 4 kg va undan ortiq vaznli farzand ko'rish,
- qon bosimining yuqoriligi va yurak qon-tomir kasalliklarning mavjudligi,
- kam harakatlilik,
- zichligi past lipoproteinlar va triglitseridlarning qonda yuqoriligi,



-tuxumdonlar polikistozi sindromi,

-ruhiy zo'riqlashlar, qo'rquv, stress, depressiya va boshqa omillar natijasida hosil bo'ladi.

Qandli diabetning har ikkala tipi uchun xos bo'lgan kasallik alomatlari: tez chanqash, tez och qolish, tez-tez siyish, charchash, energiya yetishmasligi, og'iz qurishi, teri qichishishi, ko'rishning xiralashishi, jarohat va yaralarning sekin bitishi kuzatiladi[2,5].

Ishdan maqsad: Qandli diabet bilan kasallanish holotlarini tahlil qilish, qandli diabetga chalingan bemorlarning yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish va turli yosh kesimidagi bemorlarning kun davomida(Sutka) qoni tarkibidagi glukoza miqdorining o'zgarishini aniqlash.

Tadqiqot obyektlari: Namangan viloyat endokrinologiya dispanseri markazi va Namangan shahar 4-oilaviy poliklinikasi bemorlari, ularning qoni va uning tarkibidagi glukoza miqdori, ilmiy manbalar bilan solishtirish va tahlil qilish, Namangan shahar 4-oilaviy poliklinikasida Qandli diabetlar ro'yxatida turuvchi bemorlarni yillar kesimida statistik tahlil qilish.

Tadqiqot metodlari: Statistik ma'lumotlarni yillar kesimida o'rganish. Och qoringa qandli diabet uchun qon olish, qondagi insulinni o'rganish, C-peptid va glikozil gemoglobin ko'rsatkichini biokimyoviy usulda aniqlash va ilmiy manbalar bilan solishtirish hamda tahlil qilish jarayonlaridan iborat.

Natijalar va ularning tahlili: Qandli diabet bilan chalingan shaxslarning ahvoli, ya'ni, kasallik alomatlarini o'rganish va qoni tarkibidagi glukoza miqdorini aniqlash, statistik tahlil qilish.

1-jadval. Namangan shahar 4-oilaviy poliklinikasida qandli diabetga ro'yxatga olingan bemorlar sonining yillar kesimida o'zgarishi.

So'nggi 3 yilda yangi qayd etilgan bemorlar soni yillar kesimida				So'nggi 3 yilda Qandli diabet asoratlardan vafot etganlar soni yillar kesimida			
2022-yil	2023-yil	2024-yil		2021-yil	2022-yil	2023-yil	3 yildagi umumiy yig'indisi
89 ta	74 ta	yanvar	fevral	5 ta	31 ta	11 ta	47 ta
		50 ta	74 ta				

Namangan shahar 4-oilaviy poliklinikasida qandli diabetga chalinganlar soni yildan yilga ortib bormoqda . 2023- yilda 74 ta yangi kasallanish holati qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilning dastlabki ikki oyning o'zida 124 ta yangi kasallanish qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval. Namangan viloyat endokrinologiya dispanserida D-nazoratida turuvchi 12-63 yoshgacha bo'lgan bemorlarinig kun davomida qoni tarkibidagi glukoza miqdorining o'zgarishi.




Bemorlarning yoshi	Naxorgi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Naxordan keyingi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Normada qondagi qandning miqdori Mmol/l
12	7,2	8,4	3,2-6,1
14	7,9	9,8	3,2-6,1
16	8,2	8,9	3,2-6,1
18	6,5	6,9	3,2-6,1
21	7,5	8	3,2-6,1
23	7,1	8,1	3,2-6,1
25	7,5	8,2	3,2-6,1
30	11,3	12,7	3,2-6,1
35	10,2	11,2	3,2-6,1
42	6,5	8,6	3,2-6,1
52	8,4	10,6	3,2-6,1
55	8,7	9,4	3,2-6,1
58	7,9	9,9	3,2-6,1
63	8,2	9,5	3,2-6,1

Mmol/l- 1litr qonga nisbatan glukoza molekullari nisbati.

Kuzatishlarimiz 12 yoshdan 63 yoshgacha bo'lgan bemorlarda olib borildi va quyidagi natijalar olindi. Ularni 2 ta katta guruhga bo'lib o'rganildi, 1-guruh 12-30 yoshli bemorlarni o'z ichiga oladi. 2-guruh esa 35-63 gacha bo'lgan bemorlarni tashkil etadi. 12 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan bemorlarning qoni tahlil qilinganda, ularning nahorgi(och holatdagi) qoni tarkibidagi glukoza miqdori normaga nisbatan 0,4-5,2 mmol/l ga ortganligi aniqlandi. Nahordan keyingi qon tarkibidagi glukozaning miqdori ovqat iste'mol qilganlar hisobiga normaga nisbatan 0,7-6,6 mmol/l ga ortganligi kuzatildi. Har ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda, bemorlarning qoni tarkibidagi glukoza miqdori nahorgi vaqtga nisbatan, nahordan keyingi miqdor 0,1-3,8 mmol/l ga ortganligi aniqlandi. 2-guruh bemorlari ya'ni 35 yoshdan 63 yoshgacha bo'lganlarda esa, nahorgi qoni tarkibidagi glukoza miqdori normaga nisbatan 0,4-4,1mmol/l ga ortganligi kuzatilgan bo'lsa, nahordan keyingi bu ko'rsatkich normaga nisbatan 2,5-5,1mmol/l ga ortganligi aniqlandi. Har ikkala vaqt oralig'idagi qondagi glukoza miqdorining farqlar nisbati taqqoslanganda, nahorgi holatga nisbatan nahordan keyingi ko'rsatkich 1-2,1 mmol/l yuqoriga ko'tarilganligi ko'rishimiz mumkin(1-jadval, 1-diagramma).



Qandli diabetga chalingan 12 yoshdan 63 yoshgacha bo'lgan bemorlarning qoni tarkibidagi glukozaning kun davomida o'zgarishi



Xulosa: Yuqoridagi natijalar va ularning tahlilidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- 1.Qandli dibet kasalligi surunkali kasallik bo'lib, ushbu kasallikni keltirib chiqaruvchi omillarning juda ko'pligi hamda asoratlarning og'ir kechishi bilan boshqa kasalliklardan farq qilar ekan.
- 2.Yildan yilga qandli diabetning keskin oshishini hamda yosharib borayotganligini guvohi bo'ldik.
- 3.Sog'lom odamda qondagi qand miqdori doimiy bir xil bo'ladi, qandli diabetga chalingan bemorlarda esa kun davomida ovqatlanish miqdori va ovqatning tarkibiga bog'liq bo'lishini va natijada qondagi glukoza miqdorining o'zgarishini tajriba asosida o'rgandik.
- 4.Bemorlarning qoni tarkibidagi glukoza miqdorining o'zgarishini yoshga bog'liq ko'rsatkichlarini taqqoslaganimizda, 35 yoshdan oshgan bemorlarning qonidagi qand miqdori 30 yoshgacha bo'lgan bemorlarnikidan baland ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.X.Shagzatova Endokrinologiya darslik, Toshkent. Ijod-print nashryoti-2021 (119-138-betlar).
- 2.S.I.Ismailov, Sh.U.Axmedova, Y.M.usmonova, F.S.Xodjayeva Endokrinologiya darslik, Toshkent. Tafakkur Bo'stoni-2017 (235-258-betlar).
- 3.PQ-102-coH 26.01.2022. Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-5838968>



4. "Odamni diabet emas, o'ziga nisbatan beparvolik va hurmatsizlik o'ldiradi" – O'zbekiston yangiliklari –Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/29/diabetes/>
5. Journal of Diabetes Research.
Hindawi, <https://www.hindawi.com/journals/jdr/contents/year/2023/>

